

{ BIRINCHI KITO BIM }

Kumush Abdusalomova

Kuylamasam bo'lmaydi

she'rlar

A



МАДРИДИ НУСХА

Toshkent
«Akademnashr»
2015

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50)7

A15

-Yz5. aqad

A15


Abdusalomova, Kumush

Kuylamasam bo'lmaydi / K.Abdusalomova. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 24 b.

ISBN 978-9943-985-38-4

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50)7



Aziz kitobxon!

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «Iste'dod maktabi» yosh ijodkorlar seminarida chop etilishga tavsiya qilingan ushbu kitob sizning kitob javoningizdan joy olar ekan, mutolaadan so'ng yuragingizdag'i Ona Yurtga, Ona Vatanga bo'lgan mehr-u muhabbat uchqunlari yanada alangalanishiga chin dildan ishonamiz.

Mas'ul muharrir: **Usmon Qo'chqor**

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «Iste'dod maktabi» respublika yosh ijodkorlar seminarida nashrga tavsiya qilinib, «Ijod» fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

1043919
091

ISBN 978-9943-985-38-4

© Kumush Abdusalomova
«Kuylamasam bo'lmaydi»
© «Akademnashr», 2015

O'CHMAS MASH'ALA

Bugun yigirmaga kirmay ijodining qadrlana-yotganidan yuragi g'urur-u faxrga to'lgan ijodkor yoshlarimiz o'z oldiga ulkan maqsadlarni qo'yemoqda. Chunki u qo'lidagi «**Birinchi kitobim**» loyihasida chop etilgan ilk kitobchasiga boqib kelajakda shu yurtga kerakligini, yurti oldidagi burch va vazifalarini ado etishda matonatli bo'lishi lozimligini katta hayajon bilan his qilmoqda. Yurt sha'ni, o'z xalqining milliy an'analarini, yuksak insoniylik, muhabbat, sadoqat tuyg'ularini o'zida mujassam etgan she'rlar va hikoyalari mualliflari O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan «Do'rmon» ijod uyida o'tkazilayotgan «Iste'dod maktabi» seminarlarida kashf etilmoqda. Besh yil mobaynida ushbu seminarda faol qatnashib kelayotgan yoshlarimiz respublikamiz bo'ylab o'tkazilayotgan har bir bayram tadbirida o'zlarining ijod namunalari bilan qatnashib, ustozlar ishonchini oqlamoqdalar. Muhtaram Yurtboshimiz tashabbusi bilan ijodkor yoshlarimiz hayotida unutilmas an'anaga aylangan ushbu loyiha yurtimizda adabiyotga berilayotgan katta e'tiborning yorqin samarasi bo'lib, ijodkorga, o'z oldiga buyuk maqsadlarni qo'yish, Vataniga, qalamiga sodiq qolmoqlik mas'uliyatini yuklaydi.

Ushbu jajjigina kitobchalar qo'lingizga yetib borishi bilan siz muxlislarning ham qalbingizda g'urur va faxr tuyg'usini uyg'otishiga ishonamiz. Zero, yoshlikning nashidasи ufurib turgan ijod namunalarini qalblarda o'chmas mash'ala bo'lib porlab turadi.

ZANGORTEPA BILAN SUHBAT

Ikki qishloq... Ikki baxmal qosh,
O'rtasida ulkan tepalik.
Bahor kelsa, lola – qizil cho'g' –
Lovullaydi gulxan tepalik!

Lekin sho'rlik tepaning bir kun
Qulq solsam oh-u dodiga,
«Qaysi nom-la muhrlanaman, –
Dedi, – avlodlarning yodiga?!

O'ng qishloqda «Zangortepa» deb
Atashadi erkalatishib.
So'l qishloq-chi, «Qoratepa», voh,
Yig'lasammi uzala tushib?»

Tepa bilan dardlashdik uzoq,
Yengil tortgan bo'lib ko'rindi.
Sezdim, o'zin ilgarigiday
Xursand ko'rsatmoqqa urindi.

Qoyil qoldim munkaygan, cho'kkан
Tepalikning xayollariga.
Shunda rahmat aytdim chin dildan
O'ng qishloqning ayollariga.

Yuqiqoralikdan asrasin!
Osmon rangi – olis, zangori.
Umr desa, yodimga tushar
O'sha Zangortepaning zori.

TOSHLOQ HAQIDA HIKOYA

Bir kun dedi yetmishlarga kirgan bobom:
«Qishloq nomi bir paytlar Toshloq bo'lgan.
Qizim, ko'rib turganing bu bog' o'rnilida
Qum-u toshga to'lib-toshgan qishloq bo'lgan.

Ukang kabi yog'ochdan ot minganimda
Oyog'imga chalinib tosh yiqilardim.
Kular edi, jajji qizcha edi momong,
Bo'g'zimga bir nimalar tiqilardi.

Beparvo bo'l deganimas, qizalog'im,
Yurgan yo'llaringda tosh yo'q degani.
Toshbag'ir-u tosh yurakli odamlar bor,
Oyog'ingdan chalib-chalib yiqitgani!»

FILMDAN SO'NG

Ko'zni zangor ekrandan
Ololmayman har kuni.
Hayratimni she'rimga
Sololmayman har kuni.
Jang maydoni. Murdalar
Xirmon-xirmon bo'ladi.
Shu urushni boshlagan
Girmon-girmon bo'ladi.
Chiyabo'ri chiyillar,
Shervachchalar to'yaydi.
Ko'chada bir to'p bola
Urush-urush o'ynaydi.
Ko'zi ko'k, malla sochi,
O'ris bo'lsa kerag-ov.
Bolalarning onasi
Durust bo'lsa kerag-ov.
Qo'llaridan o'yinchoq
Qurollarni op qo'ydi.
Mehr bilan bariga
G'irt o'zbekcha ot qo'ydi.
Olya qizim, Oliya!
Alyoshajon, Alisher!
Hammayog'im qofiya,
She'rlar qani, qani she'r!?
Bolalarning hammasi
O'zbek bo'lib ketgandi.
Ular xuddi qosh bilan
Ko'zdek bo'lib ketgandi.
Axir aqli to'lishar
Odam qirqqa kirganda.

Xo'sh, bizlar kimmiz, german
Oliy irqqa kirganda!?
Chiyabo'ri chiyillar,
Shervachchalar to'ymaydi.
Ko'chada bir to'p bola
Urush-urush o'ynaydi...
Ko'zni zangor ekrandan
Ololmayman har kuni.
Hasratimni she'rimga
Sololmayman har kuni.

GUL SAYLI

Ko'rganlarning havasin
Keltirgani kelganmiz.
Kim nima desa desin,
Gul tergani kelganmiz!
Gul tergani kelganmiz!

Bir yon lolaqizg'aldoq,
Uryon lolaqizg'aldoq.
Kimdir qirga bekinib
Qilar nola, qizg'aldoq,
O'g'il bola, qizg'aldoq.

Beda, burganin ko'rdim,
Itning hurganin ko'rdim.
Bir hovlida oyday qiz
Xomush yurganin ko'rdim,
Xomush yurganin ko'rdim.

Dutorim jim. Kuyadi,
Ikkita sim kuyadi.
Uvol ketgan sevgiga,
Aytinglar, kim kuyadi?!
Mening ichim kuyadi.

Eshik oldi gulhovuz,
Hammasi bir pul, hovuz.
Yona-yona kul bo'lgan
Yuraklarni yuv, hovuz.
Bag'ring to'la suv, hovuz.

Odamlar-u odamlar!
Sodda-yu quv odamlar!
Bolasiga o'ldir deb
O'rgatar huv odamlar.
Essiz-a bu odamlar...

Nur uchar yarimsharni,
Sir... uchar yarimsharni.
Tunda tinch uxlolmasang,
Tongda gul yarasharmi?!
Senga gul yarasharmi?!

Hol so'rgani kelganmiz,
Gul qo'rgani kelganmiz.
Aytib qo'ydim rostini –
Yor ko'rgani kelganmiz!
Yor ko'rgani kelganmiz!

Ko'rganlarning havasin
Keltirgani kelganmiz.
Kim nima desa desin,
Gul tergani kelganmiz!
Gul tergani kelganmiz!

YETTI KUNLIK YO'L

Shiroq kezib yurar dashtlarda,
Xavfni sezib yurar dashtlarda.
Yovni yengish uchun qulog'in,
Burnin kesib yurar dashtlarda.

Biram xunlik dunyolarida,
Biram xunuk dunyolarida,
Yetti kunlik yo'lga chiqmoqda
Bu besh kunlik dunyolarida!

Qumlargaga qon tomib boradi,
Qumlar qonga qonib boradi.
Butun boshli yov lashkarini
Ergashtirib, yonib boradi.

Dilni yegan buyruq berildi,
«Hiyla!» degan buyruq berildi.
«Darrov tutib makkor cho'ponni,
Qiyna!» degan buyruq berildi.

Qancha shoh-u a'yonlar keldi,
Yovlar, o'q-u kamonalrak keldi.
Shiroq bilan chiroqqa butkul
Ehtiyojsiz zamonlar keldi.

Shiroq kezib yurgan dashtlarda –
Bugun beda, burgan dashtlarda,
Qo'ylarini boqar cho'ponlar
Yovni Xudo urgan dashtlarda.

MAKTUB

Tegramda yulduzlar aytishar qo'shiq,
Yurakda dog'im yo'q, men garchi oyman.
Dardim tingla, o'n ming uyli ey Qo'ng'iroq,
Alpomishni kutayotgan Barchinoymen.

Axir yurtni avaylamoq asriy xizmat,
Qat'iy xizmat, jiddiy xizmat, olivy xizmat.
Og'am, qanday o'tayapti harbiy xizmat?
Alpomishni kutayotgan Barchinoymen.

Sizsiz fayzsiz bo'p qoptiyov ko'pkarilar,
Ultontozlar davrin surib, ko'p karillar.
Titrashadi, Alp desalar, qo'rqqanidan,
Alpomishni kutayotgan Barchinoymen.

Ko'kqamishda sigir boqib yuribman-da,
Qulog'imga baldoq taqib yuribman-da,
Ko'zimda yosh oqib-oqib yuribman-da,
Alpomishni kutayotgan Barchinoymen.

Boychibor, Boysariboy, Boybo'riboy,
Kutayapti sizni shuncha xalq, eliboy.
Bu xalq shunday ko'ngli ochiq ham fe'li boy!
Alpomishni kutayotgan Barchinoymen.

QORONG‘U...

*Ohim tutuni birla ko‘zimning yoshidin
Yo‘l balchiq erdi, kecha qorong‘u erdi.*

Zahiriddin Muhammad Bobur

«Qamishlar bizlarga o‘qiydi nikoh –
Oyni ushatamiz... Kim nima derdi?
Yo‘limda bor edi faqat ikki choh –
Yo‘l balchiq, axir, tun qorong‘u edi.

Sarvigulro‘sidan xat yo‘q, xabar yo‘q,
Hazratning dushmani bir uyqu edi.
Quchoqlab yig‘laydi shu bahonani:
Yo‘l balchiq... axir, tun qorong‘u edi.

Jur’at topgan edim faqat o‘sha kun...
Ko‘zga ko‘ringani his-tuyg‘u edi.
Ming afsus, yiqildim oyog‘im toyib –
Yo‘l balchiq, axir, tun qorong‘u edi.

Birinchi qadamni Odam qo‘ygan va
Momo Havoniki tatabbu edi.
Shu sabab... va yana ustiga-ustak,
Yo‘l balchiq, axir, tun qorong‘u edi.

Bugun Boyqushlarning uyida bazm,
Yapaloqqushlardan sovchilar keldi.
Zarbulmasal bo‘ldi o‘sha qora tun:
«Yo‘l balchiq, axir, tun qorong‘u edi».

Senga baxt tilashdan o‘zga choram yo‘q,
«Sevgi haqda ertak» zo‘r mavzu edi.

Mayli, mavzularim bilan qolaman...
Yo'l balchiq, axir, tun qorong'u edi.

Biroz chanqog'imni qondirmoqchiydim,
Ariqdan oqqani loyqa suv edi.
Nega tushunmaysiz, sizga aytdim-ku,
Yo'l balchiq, axir, tun qorong'u edi.

Barini yashirmay ochiqcha yozdim,
O'qiganlar uchun bu kulgu endi.
Bilmadim, bu yog'i menga qorong'u,
Yo'l balchiq, axir, tun qorong'u edi.

CHILLAK

Sindirib olishdi uni daraxtdan,
So'ng kesib tashlashdi oyoq-qo'lini.
Yerdan chuqur qazib, boshin qo'yishdi,
Zulmatlar qopladi o'ng-u so'lini.

Tayoqni ayamay urishdi keyin,
Samoda sovuqdan titradi dir-dir.
Tayoqning bir aybi, bitta gunohi –
Soqovligi bilan to'g'riligidir.

TASHQARIDA

Suylar oqli, oy botdi,
Tashqarida tong otdi.
Ko'k yorishay deganda
Yuragimga g'am botdi,
Yuragimga g'am botdi.

Nag'malardan to'yanman,
«Tog'manlardan» to'yanman.
So'zga ko'z tegmasin deb,
She'r o'qimay qo'yanman,
She'r o'qimay qo'yanman.

Umr – jarning bo'yłari,
Majnuntolning o'yłari.
Bir kun o'dirsa kerak
Bevafoning ko'yłari,
Erta-indin to'yłari.

Agar kuysa barmog'ing,
Asta ufla deysiz-ku.
Chaynalgan so'zlariningi
Yutma, tufla deysiz-ku.
Asta ufla deysiz-ku.

Shaklsizlik shaklimdir,
Barini kechir, ona.
Mening yoziqlarim shu –
Istasang o'chir, ona.
Istasang o'chir, ona.

Odamlar tog'dek o'sar
Dardin ichga yutsalar.

Nima tilaysan, otam,
Oltin baliq tutsalar,
Oltin baliq tutsalar?

Meni xushlamaganni
Xush ko'rishdan qo'rqaman.
Hatto uxlamay qo'ydim –
Tush ko'rishdan qo'rqaman,
Tush ko'rishdan qo'rqaman.

Uni unutishimga
Asrlar kerak, balki.
Farhod uchun qurilgan
Qasrlar kerak, balki,
Qasrlar kerak, balki.

Muz dillar ho'l bo'ladi,
Kul bo'ladi yonganlar.
Xudoyimga yoqmaydi
Muhabbatga qonganlar,
Muhabbatga qonganlar.

Qarog'imning qarosi
Tunga o'xshar, onajon.
Tun bilan kun arosi
U ...nga o'xshar, onajon!
Unga o'xshar, onajon.

Suvlar oqdi, oy botdi,
Tashqarida tong otdi.
Ko'k yorishay deganda
Yuragimga g'am botdi,
Yuragimga g'am botdi.

OTAMGA MAK TUB

Otajon,
Chanqab qolsam onamning
Ko'z yoshlari soy bo'ldi.
Dilimni sug'organda
Etaklari loy bo'ldi.
Bilmaysiz-da, men uchun
Yolg'iz xilvat joy bo'ldi
Siz ekkan daraxtning soyasi...
Otajon,
Men yo'talsam, tog'lardan
Toshlar ag'anadilar.
G'ururlar tog'largamas,
Sizga sig'inadilar.
Sizni ketmondan, yerdan,
Terdan qizg'onadilar.
Onam – ulkan sabrlarning doyasi...
Otajon,
Dunyo etigingizga
Ilashgan bir xas ekan.
Buvim aytib berganlari
Ertak emas, rost ekan.
Tulkilar ertakkamas,
Hayotga ham xos ekan!
Ayting, qaylarda nihoyasi?..

QIZ QO'SHIG'I

Xalq ohangida

She'r xayoliy, qo'shiq ham,
O'ylamasam bo'lmaydi.
Xalqim, senga qo'shilib
Kuylamasam bo'lmaydi!
Kuylamasam bo'lmaydi!

Chittigul, ho, chittigul,
Yirik emas, mitti gul.
Beg'am yor firog'idan
Dilimga g'am bitdi, gul.
Sabrim tugab ketdi, gul.

Oftob olamga chiqdi,
Bizga salomga chiqdi.
Ko'ylak tikib bering deb
Qo'shni xolaga chiqdim.
Yorga yoqmoqchi edim!

Tovlanadi atlasim,
Ostonadan hatladim.
«Meni sevib qoladi!»
Yuragimni aldadam,
Yuragimni aldadam.

Boychechagim boylandi,
Yor yonida aylandim.
Nigohlarini tutgan
Nigohlarim hayrondir.
Yurak-bag'rim vayrondir.

Alisher Navoiy

Kutmay yurak sovishin,
Hatto chiqmay tovushim,
Qochdim yuzim berkitib,
Tushib qoldi kovushim,
Tushib qoldi kovushim!

Tun... Shamollar ufurdi,
Yurakkinam gupurdi.
Tong otdi, ikki ayol
So'rab keldi supurgi –
Bu bir odat burungi.

Bildim shunday ekanin:
Har kim o'rар ekkanin!
Dilimga faxr soldi
O'zbek qizi ekanim!
O'zbek qizi ekanim!

She'r xayoliy, qo'shiq ham,
O'ylamasam bo'lmaydi.
Xalqim, senga qo'shilib
Kuylamasam bo'lmaydi!
Kuylamasam bo'lmaydi!

XAYRLASHUV

Tunlaringda otdi tonglarim,
Oy nurini sochdi izimga.
Onam sahar duolar qildi:
– Tangrim, bir yo'l bergin qizimga!

Asli, yo'llar boshlanar sendan,
Quyoshdan nur taralganidek.
Nega shoir yaratding mendan,
Qumdan ko'za yaralganidek.

Hamma xato teraklaringda,
Kuylab har tun buzar uyqumni.
Kulolgayam qoyil qolmadim,
O'z holiga qo'yjadi qumni.

Chirchiqdaryo yuvar sochingni,
Otam qarmoq tashlagan ko'llar...
Netay, hozir bormasam bo'lmas,
Meni kutib turibdi yo'llar.

Isming bilan adash taqdirim,
Dilga orzu solib ketyapman.
Qishloq, tashlab ketyapti dema,
Yuragimda olib ketyapman...

ONAMGA

Sovuq qish... Oppoq sharf o'rab bo'y nimga,
Juda qo'r qardingiz shamolla shimid dan.

Ulg'ayish... Tikilib yetgan bo'y imga
Qo'r qayapsiz yurakni allala shimid dan.

Qo'r qmang, nomardlarga tushmaydi ishim,
Ko'kka sovurmayman ushbu damlarni.
Otam aytganidek, yurtim demasa,
Odam sanamayman bu odamlarni.

Dunyo hayratidan yoqa ushlaydi
Ko'rib ikki daryo yoqalarini.
Bag'rida yurib ham uni bilmashlar
Yig'lasin yirtishib yoqalarini.

Baxtga sadoqatni ko'rsatib qo'yib,
G'amning boshlarini egib qo'yganman.
Ona, she'rlarimga sig'dirolmasdan,
Vatanni yurakka ekib qo'yganman.

Ona, zo'r shoira bo'lasan debon
Manim manzilimni yo'lda hal qilma.
Manim bu she'rlarim hikmat berurmu
Aytgan har bir so'zi hikmat xalqima?!

Ana Vatan deya ko'rsatma endi,
Ko'kish xaritani, bog'-u bo'stonni.
Unda yashayotgan har bir odamning
Qalbida ko'raylik O'ZBEKİSTONni!

Dardida ko'raylik O'ZBEKİSTONni...

QANDAY YAXSHI

Qanday yaxshi, qanday soz!
Shuyam bor-da qismatda.
Eng og‘ir, olg‘ir yigit
Hozir harbiy xizmatda.

Og‘ir yigit og‘ir-da,
Kulganin ko‘rmaganman.
Undan boshqasini deb
Sochimni o‘rmaganman.

Meni ko‘rganda ko‘zi
Yerni o‘pib o‘tardi.
Nimagadir yuragim
Tepib-tepib o‘tardi.

Xizmat o‘tayotgandir
Hozir harbiy qismda.
Anig‘ini bilmadim,
Sharqmi, g‘arbiy qismda.

Xayrlashmay ketibdi,
Muhabbatni tuymadim.
Undan boshqasini deb
Men kuymadim, kuymadim!

Ochmasa ham dilini,
Aytishga uringan-ku!
Derazam pardasida
Soyasi ko‘ringan-ku!

Tomimizga qo'nvolib
O'qraygandi boyo'gli.
Sovchi keldi. Yigitcha
Boyning o'g'li, boy o'g'li.

Jahllari aqldan
O'zib ketdi, shekilli.
Sovchilarning kalishi
To'zib ketdi, shekilli.

Polvon emish, kurashga
Usta bo'lsa o'ziga.
Harbiyga bormaganning
Ishonmayman so'ziga.

Tangriga ming shukrki,
Tanlaganim – bek yigit.
Vatanni sevmaganga
Darvozasi berk yigit.

Mundarija

O'chmas mash'ala	3
Zangortepa bilan suhbat.....	4
Toshloq haqida hikoya.....	5
Filmdan so'ng	6
Gul sayli.....	8
Yetti kunlik yo'l.....	10
Maktub	11
Qorong'u.....	12
Chillak	13
Tashqarida	14
Otamga maktub	16
Qiz qo'shig'i.....	17
Xayrlashuv	19
Onamga	20
Qanday yaxshi.....	21

4000c

Kumush Abdusalomova

**KUYLAMASAM
BO'L MAYDI**

She'rlar

Muharrir: Abdulla SHAROPOV
Badiiy muharrir: Bahriiddin BOZOROV
Texnik muharrir: Dilshod NAZAROV
Sahifalovchi: Inomjon O'SAROV
Musahhih: Otabek BOQIYEV

Nashriyot litsenziyası: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.03.2015-y.

Bosishga ruxsat etildi: 11.05.2015-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 $\frac{1}{32}$.

Schoolbook garniturasi. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 0,64. Shartli b.t.: 0,87.

Adadi: 20000 nusxa.

Buyurtma № 108.

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20^A-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77
e-mail: info@akademnashr.uz
web: www.akademnashr.uz

«PRINT LINE GROUP» XK bosmaxonasida chop etildi.
100096, Toshkent shahri Bunyodkor shohko'chasi 44-uy.